



МАКТАБГАЧА КАТТА YOSHDAGI BOLALARDA HAYOT XAVFSIZLIGI KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Muratova M.O'.

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: sog'lom turmush tarzi, ota-ona, pedagog, hayot xavfsizligi, chora-tadbirlar, jismoniy zo'ravonlik, e'tiborsizlik, muhit, hamkorlik, xavfsizlik qoidalari, ta'lim-tarbiya, tashabbuskorlik, rivojlantirish, hamkorlikdagi yondoshuv, mahorat.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, родители, педагоги, безопасность жизнедеятельности, меры, физическое насилие, пренебрежение, окружающая среда, сотрудничество, правила безопасности, воспитание, инициатива, развитие, кооперативный подход, умение.

Key words: healthy lifestyle, parents, teachers, life safety, measures, physical violence, neglect, environment, cooperation, safety rules, education, initiative, development, cooperative approach, skill.

Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri bu bolalar salomatligini saqlash hisoblanadi. V.A. Suxomliniskiyning “Men qayta va yana qayta takrorlashdan charchamayman: bola salomatligini himoya qilish – tarbiyachining eng muhim vazifasidir ” degan mashhur iborasi bejizga aytilmagan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z salomatligiga qayg'urish, sog'lom turmush tarziga va gigiyena qoidalariga amal qilish orqali salomatliklarini tiklash va muhofaza qilish ko'nikmalarini shakillantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limning uzviy yo'nalishlaridan biri bu, bolani salomatlik darajasini oshirish, ularda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakillantirish, shuningdek doimiy jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, zararli odatlardan uzoq yurishga odatlantirib borish zarur. Zero, salomatlik bu – nafaqat kasal bo'lmaslik, bu organizmning ishga yaroqlilik holati, ijodiy o'sish hamda kelgusida barkamol va yetuk shaxs kelajagining poydevori hisoblanadi. Shu o'rinda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini



shakllantirish va salomatlikni mustahkamlash uchun pedagog-tarbiyachilar faoliyat jarayonida quyidagilarga amal qilishlari lozim:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy faoliyat va rivojlantiruvchi markazlarda tarbiyalanuvchilarda hayot xavfsizligi tushunchalarni shakllantirish maqsadida xavfsizlikka oid terminlar haqida ma'lumot berib borish;

2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash maqsadida qoidali, ijodiy, o'yinlarni o'ynashga jalb qilishi;

3. Bolalarda ehtiyotkorlik, qoidalarga amal qilish, har bir narsani ehtiyotkorlik bilan ishlatish, salomatlik va xavfsizlik haqida tushunchalar berish nafaqat tarbiyachining, balki ota-onaning ham vazifasi ekanligini unutmaslik;

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida berilayotgan barcha bilim va ko'nikmalar, bu bizning o'zimizga va yon atrofdagi yaqin insonlarimizga, sog'ligimizga, hayot xavfsizligimizga, vaqtni bekor o'tkazmasdan, undan unumli foydalanishimizga, shuningdek chin dildan xavfsizlik qoidalarga amal qilishimizga bog'liq ekanligi haqidagi tushunchaga yo'naltirilishi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarining tarbiyaviy yo'naltirilganligi xavfsizlik muammolarini hal qilishning samarali usullaridan biri bo'lib hizmat qiladi.

Birinchisi – insonparvarlik xavfsizligi bo'lib, maktabgacha yoshdagi bollarlarda xavfsiz turdagi shaxsni tarbiyalash bilan birga hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishda xavfsizlik nuqtai nazaridan yaxshi insonlar tasvirida tarbiyalash ham muhim ahamiyat kashf etadi. Bunday tasvir sifatida atrofdagi odamlar, qarindoshi, tarbiyachisi, zamondoshlar, sevimli asar qahramonlari va boshqalar misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchisi – axborot xavfsizligi. Hayot faoliyati xavfsizligining bu yo'nalishi nafaqat maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun balki, barcha insoniyat uchun ham, yangi xavflarni va tazyiqlarni tug'diradi. Xalqimiz aholisi, shu jumladan maktabgacha yoshdagi bolalar to'g'ridan-to'g'ri axborot tajovuzi bilan to'qnashmoqda. Bizga yot axborot bolalar ongiga sindiriladi. Ular ongiga axborot erkinligi sifatida o'z-o'zini parchalash, turli xildagi o'ylab topilgan o'rgimchaksimon odamlar, g'arbiy maxsus xizmat qahramonlari yaratiladi. Shu sababli maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ruhiy dunyosini ommaviy axborot vositalarining zararli ta'sirdan muxofazalash, ularga ijtimoiy immunitetni ishlab chiqishga yordam berish, muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchisi – xavfsiz bolalik. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot faoliyati xavfsizlik ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy mexanizmidan



birining funksiyasini, yani bolalar ustidan jamoat homiyligini amalga oshirish hisoblanadi. Tarbiyaviy faolyat jarayonida odatiy bo‘lmagan qoidalar (giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish) profilaktikasi amalga oshirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchi – ekologik xavfsizlik. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakillantirish mobaynida biz albatda ekologik xavfsizlik, ekologik muammolar haqida yosh avlodda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakillantirib borishimiz eng samarali usullardan biri bo‘lib hizmat qiladi. Xususan bugungi kunning dolzarb muammolaridan ichimlik suvlarining tanqisligi, havo ifloslanishining toboro ortib borayotganligi, natijada yuqumli va boshqa turdagi kasalliklar sonining ko‘payib borishi bularning barchasi insonlarning tabiat boyliklaridan unumli foydalanmasliklari, chiqindilar yoqish, suvni keragidan ortiq foydalanish kabi qator masalalarga borib taqalishi tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish keraligidan dalolat beradi.

Beshinchisi – shaxsiy xavfsizlik. Saxsiy xavfsizlikni makabgacha yoshdan boshlash lozim. Sababi qiz va o‘gil bolalar o‘rtasida odob-ahloq qoidalari, mumkin, mumkin emas kabi tushunchalar qancha erta yoshdan boshlab shakillantirib borilsa shuncha maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni alohida kiyinish honalarida usti-boshini almashtirishga odatlantrish, o‘g‘il va qizbolalar o‘rtasida masofa saqlash, begonalar bilan yaqin munosabatda bo‘lmaslik kabi ko‘nikmalarini hosil qilib boorish lozim.

Oltinchi – mas‘ulyatlilik va javobgarlikni oqilona birga olib borishni tarbiyalash hissi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda faolyatlar jarayonida mas‘uliyat va javobgarlik hissi shakillantirib borilishi bilan bir qatorda keyingi hayotga tayyorgarlik, o‘z zimmasidagi vazifalarga mas‘uliyat bilan yondashish kabi qator sifatlar ham shakillanib boriladi. Albatda bola tarbiyasida kattalar ko‘zgu bo‘lib hizmat qiladi. Bola doim kattalarni o‘zlariga idial shaxs sifatida namuna qilib olishadi.

Kattalarning vazifasi nafqat bolani himoya qilish, balki uni turli qiyin va bazan xavfli uchrashuvlarga tayyorlashdir. Albatda bolalarda hayot xavfsizligi haqida bilim ko‘nikmalarini shakillantirish amaliy ishni talab qiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalalrda buning samarali usuli didaktik o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Demak, faoliyatning eng samarali turi bu o‘yin.

Didaktik o‘yinlar jarayonida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan ta‘limiy muhitni yaratish tarbiyachilardan mahorat talab etadi. Keltirib o‘tilgan ta‘lim shakillarni maktabagcha ta‘lim tashkilotida noan‘anaviy tarzda tashkil qilish mumkin.



Masalan, “Xavfsizlik daraxti”, “Xavfsizlik karuseli”, “Xavfsizlik mehanizimi”, “Bilimlar banki” va boshqalar.

“Xavfsizlik daraxti”. Qabulxonada daraxt bezatiladi rangli barglari bilan. Ota-onalar bolalar bilan bittasini olish tavsiya etiladi.

Uyda qoling va vazifani birgalikda bajaring, teskari tomonga murojat qiling

Xavf tasvirlangan barg chizmasi uydagi narsalar yoki xavfli vaziyatda qanday yordam berishi mumkin.

“Bilimlar banki”. guruhda xavfsizlik mavzusi e’lon qilinadi va har oy o’zgarib turadi. Masalan “yong’in xavfsizligi oyligi” bukletlar ota-onalarga tarqatiladi va xavfsizlik bilimlari banki cho’ntagi yong’in paytida xavfsiz xatti-harakatlar va xavfsizlikka oid savollari joylashtiriladi. Ota-onalar bolalar bilan birgalikda savollarga javoblar berishadi. Savollar har hafta o’zgarib turadi va ma’lumotlar banki javoblar bilan to’ldiriladi. Oy oxirida natijalar umumlashtiriladi va chiqariladi. Yulduzcha shaklida «dividendlar», qaysi bolaning shkafiga yoki medallarga tayoqchalar yopishtiriladi, “Yong’in xavfsizligi bo’yicha eng yaxshi mutaxassis” va boshqalar. Yil oxirida eng ko’p faol ishtirokchilar sertifikatlar rag’batlantiriladi. «Uyga vazifa» Bolalar va ota-onalar uchun kitobchalar bolaga to’g’ri xulq-atvorni o’rgatish kitobchada tasvirlangan rasmlar orqali, bolalar ota-onalar bilan birgalikda to’g’ri yechimlarni topadi. Tabiiy ofat paytida xavfli xatti-harakatlar. Masalan, kerakli narsani tanlang. Toshqindan keyin harakatlar ketma-ketligini raqamlang. Oilaviy favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik rejasi va boshqalar.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar tomonidan xavfsizlikka oid bilimlarni o’zlashtirish uchun o’yin va real xavf kombinatsiyasini yaratish muhim pedagogik texnologiya ekanligi ma’lum.

Adabiyotlar:

1. Muratova, M. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalarni ta’lim tarbiyaviy jarayonda faol ishtirokini ta’minlashning amaliyotdagi holati. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
2. Muratova, M. O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta’lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 111-113.
3. Muratova, M. O. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarga akt ning salbiy tasiri. In *проблемы научных исследований и пути их решения* (pp. 7-11).
4. Imamova, N. Z. (2022). Developing the creative qualities of future teachers. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 317-321.
5. Джамилова, Н. Н., Кадилова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2020). Теоретическое и практическое состояние проблемы развития инициативности у студентов. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (6), 36-42.
6. Ergasheva, B. (2022). Talabalarining pedagogik moderinizatsiya sharoitida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.



7. Barno, E. (2023). O‘zbekistonda maktabgacha talim muassasalarining zamonaviy tizimi. Research Focus International Scientific Journal, 2(3), 103-105.

8. Muratova, M. (2023). Negative consequences of bullying in relation to preschool children. International Journal of Pedagogics, 3(10), 43-47.

9. Muratova, M. (2023). Peculiar aspects of working with family in the formation of the culture of life safety in children of preschool age. Science and innovation, 2(B2), 593-596.

10. Sadikova, S., & Azamatova, D. (2022). Pedagogical innovation cluster of activity of centers in preschool education. Science and Innovation, 1(7), 1138-1143.

11. Nasreddinova, K., & Sadikova, S. (2022). Features of the development of preschool children in a bilingual environment. Science and innovation, 1(B7), 1440-1444.

РЕЗЮМЕ

Мақола мактабгача yoshdagi bolalarning hayot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo’lib, bugungi kunda tarbiyalanuvchilar ko’p uchrayotgan hayot havfsizligiga doir muammolar, ularning yechimlari va ularning oldini olish uchun chora tadbirlarini ishlab chiqish, oilada, ko’chada, xavfsiz shart sharoitni ta’minlashning didaktik ta’minoti bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья направлена на обеспечение безопасности жизни детей дошкольного возраста, проблемы безопасности жизнедеятельности, с которыми сегодня сталкиваются дети, их решение и разработку мер их предотвращения, обеспечение безопасных условий, описано дидактическое обеспечение в семье, на улице.

SUMMARY

The article is aimed at ensuring the safety of life of preschool children, the life safety problems that children face today, their solution and the development of measures to prevent them, ensuring safe conditions, didactic support in the family and on the street is described.